Birinchidan, G‘azzoliyning Ibn Sinoga nisbatan munosabati biryoqlama rad etish emas, balki murakkab tanqidiy-e’tirof xarakteriga ega ekanligi isbotlandi. G‘azzoliy faylasufning ruh mustaqilligi va uning substansial tabiati haqidagi mantiqiy argumentlarini metodologik jihatdan ishonchli deb topgan. Bu esa islom tafakkuri tarixida falsafiy psixologiya va kalom antropologiyasining o‘zaro integratsiyalashuviga xizmat qilgan.

Ikkinchidan, mutafakkirlar o‘rtasidagi prinsipial ixtilof metodologik emas, balki esxatologik yakun (oxirat natijasi) nuqtayi nazaridan yuzaga kelganligi aniqlandi. Ibn Sinoning faqat ruhiy lazzatga asoslangan metafizik xulosasi G‘azzoliy tomonidan islom aqidasi doirasida qayta ko‘rib chiqilgan. Natijada G‘azzoliy Ibn Sinoning “nafs” tushunchasini saqlab qolgan holda, unga jismoniy tirilish haqidagi teologik elementni qo‘shish orqali “shariatga moslashtirilgan peripatetizm” modelini yaratgan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

(1). Ibn Sino va G‘azzoliy bahsini faqat “Tahofut” doirasida emas, balki G‘azzoliyning keyingi davr asarlari (masalan, “Kimyoyi saodat” va “Mishkat al-anvar”) bilan qiyosiy o‘rganish.

(2). Mazkur ta’limotning amaliy-axloqiy va psixosomatik jihatlarini zamonaviy bioetika hamda antropologik muammolar yechimiga tatbiq etish.

(3). Tadqiqotining keyingi bosqichlarida Ibn Sino va G‘azzoliyning ruh va jism mutanosibligi borasidagi qarashlarini Ibn Rushdning “Tahofut al-tahofut” asaridagi raddiyalari bilan uch tomonlama (triangulatsiya) tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqot kelajakda o‘rta asrlar Sharq falsafasi va islomiy antropologiya yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abu Homid G‘azzoliy. Tahofut al-falasifa (Faylasuflarning o‘z-o‘ziga zid kelishi) / Mas’ul muharrir: Sulaymon Dunyo. Qohira: Dorul Maorif, 1972, 320 bet.

(2). Abu Ali ibn Sino. Al-Shifo (At-tabiiyyot. An-nafs). Mas’ul muharrir Ibrohim Madkur. Qohira, Hay’at al-Misriyya, 1975, 280 bet.

(3). Frank Griffel. Al-Ghazali’s Philosophical Theology (Al-G‘azzoliyning falsafiy teologiyasi). Oxford, Oxford University Press, 2009, 416 p.

(4). Hazratqulov M. Ibn Sinoning nafs falsafasi. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1980, 160 bet.

(5). Mo‘minov I. O‘rta Osiyo mutafakkirlari tarixi va dunyoqarashidan lavhalar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1973, 224 bet.

(6). Marmura M.E. Al-Ghazali and the Philosophers on Spiritual Resurrection (Al-G‘azzoliy va faylasuflarning ruhiy tirilish haqidagi bahsi). Islamic Studies Journal. Pakistan, 1966, vol. 5, № 2, p. 181–220.

(7). Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. Fors tilidan B.Eraliyev tarjimasi, Toshkent, “Adolat”, 2005, 640 bet.

(8). Ibn Rushd. Tahofut al-tahofut (Raddiyaning raddiyasi). Mas’ul muharrir Sulaymon Dunyo. Qohira, “Dorul Maorif”, 1981, 450 bet.

Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li (Toshkent Fan va texnologiyalar universiteti Kechki ta’lim bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari)

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – JADIDCHILIK HARAKATINING YETAKCHI NAMOYANDALARIDAN BIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari tahlil qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy uyg‘onish jarayonlarida asosiy tutgan o‘rn egallagan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlari, darsliklar yaratish va matbuot orqali jamiyatni isloh qilish borasidagi faoliyati diqqatga sazovvor.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktabi, milliy uyg‘onish, matbuot, islohot.*

Юлдашев Аскаржон Абдугаппар ўғли (Заместитель руководителя вечернего отделения Ташкентского университета науки и технологий)

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ – ОДИН ИЗ ВЕДУЩИХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется жизнь, социально-политическая деятельность и просветительские идеи Махмудходжи Бехбуди, одной из главных фигур движения джадидов. Махмудходжа Бехбуди сыграл ключевую роль в процессах национального возрождения. Следует*

отметить его заслуги в организации новых школ усул, создании учебников и реформировании общества посредством прессы.

Ключевые слова: *джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, просвещение, новая школа усул, национальное возрождение, пресса, реформа.*

Yuldashev Askarjon Abdugappar o'g'li (Deputy Head of the Evening Education Department, Tashkent University of Science and Technology)

MAHMUDHOJA BEHBUDIY IS ONE OF THE LEADING REPRESENTATIVES OF THE JADIDIST MOVEMENT

Annotation. *This article analyzes the life, socio-political activities and ideas of enlightenment of Mahmudkhodja Behbudi, one of the major figures of the Jadid movement. Mahmudkhodja Behbudi played a key role in the processes of national revival. Mahmudkhodja Behbudi's services in organizing new usul schools, creating textbooks and reforming society through the press are noteworthy.*

Keywords: *Jadidism, Mahmudkhodja Behbudi, enlightenment, new usul school, national revival, press, reform.*

Kirish (Abstract). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar jadidchilik harakatining shakllanishiga zamin yaratdi. Bu harakat milliy uyg'onish, ma'rifat va islohot g'oyalarini ilgari surgan ziyolilar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy alohida o'rin tutadi. Mahmudxo'ja Behbudiy dramaturg, publitsist, ma'rifatparvar va jamoat arbobi sifatida jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga intilgan [1]. Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati milliy ta'lim tizimini isloh qilish, matbuotni rivojlantirish va ijtimoiy fikrni yangilash bilan bog'liq edi.

Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods). Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida tavallud topgan. Mahmudxo'ja Behbudiy ota tomonidan Xoja Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, ona tomoni ham ziyoli muhitga mansub edi. Bu omillar uning ma'naviy va intellektual shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan [2]. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida Samarqandda tog'alari yordamida xat-savod chiqargan, keyinchalik otasi rahbarligida Qur'oni karimni o'rgangan. O'n besh yoshida qozi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik xizmatini boshlab, huquqiy va ma'muriy ishlar bilan tanishgan. Keyinchalik, muftiylik lavozimida ishlab, fiqh, meros va sud ishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan.

Ayrim tadqiqotlarda Behbudiyning sud-huquq sohasidagi fikrlari zamonaviy islohotlarning ilk nazariy asoslaridan biri sifatida baholanadi. U jinoyat va jazo masalalarida ijtimoiy adolat, insonparvarlik va jamiyat manfaatini ustuvor qo'yish g'oyasini ilgari surgan. Manbalarga ko'ra, u jazolarning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilib, "afv" tushunchasini huquqiy amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini ta'kidlagan [3].

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatga bo'lgan qiziqishi oilaviy muhit bilan bog'liq edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, "Hidoya" asariga sharhlar yozgan. Bu asar Behbudiyning intellektual shakllanishida muhim o'rin tutgan [4]. 1899-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy haj safariga chiqib, Arabiston, Misr va Turkiya shaharlarida bo'lgan. Sakkiz oylik safar davomida u yerlardagi ta'lim tizimi, madaniy muhit va islohotlar bilan tanishgan. Qohiradagi "Jome' ul-Azhar" madrasasini ziyorat qilib, yangi kitoblar olib qaytgan. Bu safar uning siyosiy va ijtimoiy qarashlarida muhim burilish yasagan. U taraqqiyotning asosiy yo'li ma'rifat va islohot ekanini anglab yetgan.

1903–1904-yillarda Qozon va Ufa shaharlariga safar qilib, yangi usul maktablari faoliyati bilan tanishgan. Tatar ziyolilari, ayniqsa Ismoil Gaspirinskiy bilan yaqin aloqa o'rnatgan. Gaspirinskiyning "Tarjumon" gazetasi Behbudiy uchun muhim ma'naviy-ma'rifiy minbarga aylangan.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ta'limni isloh qilish maqsadida yangi usul maktablari tashkil etgan. Mahmudxo'ja Behbudiy Siddiqiy Ajziy va Abduqodir Shakuriy bilan hamkorlikda 1903-yilda Samarqand atrofidagi qishloqlarda yangi usul maktablarini ochgan. 1908-yilda maktab Samarqand shahriga ko'chirilib, uning hovlisida faoliyat yuritgan.

Natijalar (Results). Tadqiqot jarayonida Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatparvarlik qarashlarining shakllanishiga ta'sir etgan omillar kompleks ravishda tahlil qilindi va quyidagi ilmiy natijalar aniqlandi. Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatparvarlik qarashlarining shakllanishi Turkiston hududidagi murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqaning Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida mustamlaka tizimiga tortilishi mahalliy ziyolilarni milliy taraqqiyotning yangi yo'llarini izlashga undagan. Ushbu sharoitda ma'rifat va ta'lim jamiyatni yangilashning asosiy vositasi sifatida qarala boshlagan. Behbudiy ham ana shu jarayon ta'sirida ta'lim tizimini isloh qilish g'oyasini ilgari surgan [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Sharq ilmiy-falsafiy merosi muhim o‘rin egallagan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy hamda Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning ilm, ma’rifat va inson kamoloti haqidagi g‘oyalari Behbudiyning pedagogik qarashlari shakllanishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu an’anani davom ettirib, ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilgan.

Muhokama (Discussion). Mahmudxo‘ja Behbudiy umrining, taxminan, oxirgi ikki yili ilk sho‘ro davriga to‘g‘ri kelgan. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko‘p bilim egasi ekanligi, sho‘rolarning turli jabhalarda boshlagan “inqilobiy” ishlariga aynan Behbudiyni jalb etilishiga sabab bo‘ladi. U hatto Eron va Afg‘oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilinadi. Biroq, Behbudiy o‘z sog‘ligi yomonligini bayon qilib, bu lavozimdan bosh tortadi [6]. Biroq ushbu hujjatlar Behbudiyning Turkiston siyosiy doirasida munosib o‘rni bo‘lganligini ko‘rsatadigan beqiyos dalildir.

Turkiston muxtoriyatini zo‘r mamnuniyat bilan qarshi olgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ozodlik haqidagi orzulari vaqt o‘tgan sayin sarobga aylanib boradi. U muxtoriyatning nechog‘li zaif ekanligini yaxshi bilar, shuning uchun Turkiston xalqlarining birlashmog‘ini va shu orqaligina muxtoriyatni saqlab qolinishi mumkinligini jon-jahdi bilan tushuntirishga urinardi. Bu haqida Behbudiy o‘zining “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” maqolasida “Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyatda olinur, berilmas… Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘liga sa’y qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar…” degan, xitob bilan chiqadi [2]. Siyosiy vaziyatni tahlil qilib, yaxshi tushunib turgan Behbudiy “qog‘oz ustidagi” muxtoriyatni yo‘q qiluvchi illat milliy birlik va ahillikning yo‘qligi, amaldorlarning nafsoniyat va g‘urur havosiga berilishi ekanidan ogohlantiradi, istiqlolni amaliyotga aylantirish uchun turli tabaqalarning ittifoq tuzib, unga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari Turkiston jamiyatining tarixiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. O‘rganilgan manbalar va ilmiy tadqiqotlar Behbudiy faoliyatini faqat pedagogik yoki adabiy faoliyat bilan cheklab bo‘lmasligini, balki uni keng qamrovli ijtimoiy-ma’rifiy harakat jadidchilik doirasida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, Behbudiy qarashlari milliy uyg‘onish davri tafakkurining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Hozirgi davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan ta’limni yangilash, zamonaviy bilimlarni egallash va milliy ongni rivojlantirish g‘oyalari bugungi ta’lim tizimi uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari jadidchilik harakatining umumiy g‘oyaviy asoslari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishida tarixiy sharoit, madaniy meros va zamonaviy ilmiy g‘oyalar muhim rol o‘ynagan. Shu sababli Behbudiyning pedagogik va ma’rifiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda ham muhim ilmiy-metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa (Conclusion). Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan yirik ma’rifatparvar edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyatni isloh qilish, ta’lim tizimini yangilash va zamonaviy bilimlarni keng targ‘ib etish orqali ozod va taraqqiy etgan jamiyat barpo etish mumkin, deb hisoblagan. Uning faoliyati va asarlari o‘zbek milliy tafakkuri va ta’lim tizimi rivojida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). S.Raxmonov. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Vatan ozodligi yo‘lida shshid bo‘lgan ma’rifatparvar. Barhayot ja-didlik. To‘plam, T., “O‘zbekiston”, 2025, 252–268-betlar.
(2). Qosimov B. Jadidlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.
(3). Rajabov Q. Turkiston jadidchiligi tarixi. Toshkent, 1999.
(4). Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil 25-mart.
(5). Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Sharq”, 1999.
(6). N.Shodmonov. Behbudiyning vasiyati. https://yuz.uz/news/behbudiyning-vasiyati // 31.07.2023.
(7). Abdulazizov A. O‘zbek ma’rifatparvarlari. Toshkent, 2010.